



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 26-iyul, № 152 (9047)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH ISHSIZLIK VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA XIZMAT QILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi bandligini ta'minlash va kasbiy ta'lim tizimidagi yangi yondashuvlarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Joriy yilda bu sohada xorijiy tajriba asosida yangi yondashuvlar yo'lga qo'yildi. Banklar mahallalarga bog'lanib, aholi bandligini ta'minlashga xam hissa qo'shmoqda. Xususan, birinchi yarim yillikda 3 milliondan ziyod aholi daromadli mehnatga jalb qilindi.

Kambag'allikni qisqartirish borasida yaratilgan tizim hamda sarflanayotgan mablag'lar o'z samarasini berib, joriy yilning 1-iyul holatiga ko'ra kambag'allik darajasi 6,8 foizni tashkil qildi.

Aholi bandligini oshirishda kasbiy ta'lim sifati juda muhim. Bu borada ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish, malaka oshirishni yangi darajaga ko'tarish hamda xususiy

sektor ishtirokini ta'minlash talab etilmoqda. Kasbiy ta'limning mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelmasligi kadrlar tayyorlashda muayyan muammolarga sabab bo'lmoqda.

Mehnat munosabatlaridagi ayrim me'yorlar tadbirkorlik subyektlari, ayniqsa, kichik korxonalar uchun murakkablik tug'dirmoqda. Ishga qabul qilishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti.

Shuningdek, amaldagi talablar ish beruvchilarni haqiqiy vakansiyalarni ochiq e'lon qilishga rag'batlantirmaydi. Oqibatda bu ma'lumotlarni yashirishga olib kelib, mehnat bozorini to'g'ri tahlil qilish hamda kasbiy ta'lim yo'nalishlarini aniqlash imkonini cheklamoqda.

Taqdimotda mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan yangi reja va tashabbuslar haqida ma'lumot berildi.

Unga muvofiq mehnat organlari ish beruvchilarga nisbatan jazo qo'llovchi emas, balki hamkor sifatida faoliyat yurituvchi, ularga xizmat ko'rsatuvchi tuzilmaga aylanishi ko'zda tutilmoqda.

Xususan, ish beruvchilar tomonidan bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi majburiy ma'lumotlarni taqdim etmaslik va jo'natilgan nomzodlarni ishga olmaslik uchun jazo choralarini bekor qilish taklif etilmoqda. Bu orqali bandlik organlari ish beruvchilardan to'g'ri va haqqoniy ma'lumotlarni to'plab, ularga ish

izlayotgan fuqarolarni yo'naltiradi. Ish beruvchi esa nomzodni qabul qilish yoki qilmaslikni o'zi hal etadi.

Ushbu tizimni joriy etish uchun maxsus elektron platforma yaratilib, dastlab Toshkent shahrida tajriba tariqasida boshlanadi va keyinchalik butun mamlakat bo'yicha tatbiq etiladi.

Shu bilan birga, mutaxassis topish murakkab bo'lgan vakansiyalar kasbiy ta'limning asosiy yo'nalishlariga aylantirilib, tayyorgarlik jarayonlarini maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi.

Kasbiy ta'lim sifati yana oshirish maqsadida xususiy sektor vakillarini Kasbiy ko'nikmalar markazlari faoliyatiga jalb etish,

ayrim markazlarni esa aniq sohalar bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlariga aylantirish rejalashtirilgan.

Mutasaddilarga kasbiy ta'limni uch bosqichli tizimga o'tkazish vazifasi qo'yildi. Jumladan, internet orqali bepul videodarslarni joriy etish, ishlovchi fuqarolarga qayta tayyorgarlik yoki malaka oshirish uchun "kasb vaucheri" orqali imkoniyat yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari malakali kadrlar tayyorlash respublikada ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladigan eng muhim omillardan biri ekanini ta'kidladi.

O'ZA.

Senator va hayot

HUDUDDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUAMMOLAR O'RGANILDI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi Malika Qodirxonova Toshkent viloyatiga xizmat safari doirasida hududda ijtimoiy-iqtisodiy sohada tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Xususan, senator Qibray tumanidagi Boyjigit mahallasida joylashgan inklyuziv bog'chaning qurilish jarayoni bilan tanishdi. Mazkur bog'cha bilan bog'liq masala Senat yalpi majlisida muammoli, deb topilgan edi. Mutasaddilar tomonidan qurilish ishlari 2025-yil oktyabrgacha yakunlash va uni foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Toshkent viloyati Fizioterapiya va pulmonologiya markazi hamda Qibray tumani tibbiyot birlashmasida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati, bemorlar va shifokorlar uchun yaratilgan sharoitlar o'rganildi. Bu jarayonda mazkur muassasalarda elektr energiyasi, issiqlik va ichimlik suvi ta'minoti bilan bog'liq muammolar mavjudligi aniqlandi va ularni bartaraf etish yuzasidan mas'ullar zimmasiga aniq vazifalar yuklatildi.

Senator Chinobod, Shodlik va O'tkir mahallalarida "mahalla yettilligi" faoliyati bilan ham tanishdi. Mahalla raisi, profilaktika inspektori, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim va boshqa mas'ullar bilan bo'lib o'tgan suhbatda aholining muammolarini aniqlash, ularga yechim topish, yoshlar va xotin-qizlarning faolligini oshirish, huquqiy bilimlarini mustahkamlash zarurligi alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, senator ishtirokida Qibray tumanida sayyor qabul ham tashkil etildi. Fuqarolarning imtiyozli kredit ajratish, xotin-qizlarning mehnat huquqlarini muhofaza qilish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga yordam ko'rsatish, aholi bandligini ta'minlash kabi murojaatlari ko'rib chiqildi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

RAQAMLASHTIRISH — DAVR TALABI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasining 2025-yilga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Raqamli texnologiyalar vazirligining axboroti eshitildi.

Qonunchilik palatasi deputatlari, Raqamli texnologiyalar vazirligi mutasaddilari, shuningdek, OAV vakillari qatnashgan tadbirida ta'kidlanganidek, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasining 2025-yilga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlariga erishish doirasida tizimli ishlar hayotga tatbiq qilinmoqda. Xususan, 2025-yil yanvar — may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari o'sish sur'ati

123,5 foizni tashkil etdi. AKT sohasida o'zini o'zi band qilganlar soni deyarli 100 ming nafardan oshdi. IT va masofaviy xizmatlar eksporti geografiyasi ham kengaytirilib, 90 dan ortiq davlatlarga xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Shu bilan birga, 2025-yilda Yagona inter-aktiv davlat xizmatlari portalida 54 ta yangi elektron xizmat joriy etilib, jami xizmatlar soni 761 taga yetkazilgan.

Yig'ilishda keyingi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sun'iy intellekt texnologiyalarining O'zbekistondagi rivojlanish darajasi xususida ham so'z yuritildi. Ma'lum qilinishicha, vazirlik tomonidan sog'liqni saqlash sohasida foydalanish uchun sun'iy intellektga asoslangan 1 mln. dollar miqdoridagi yuqori samarali, zamonaviy server qurilmalari (GPU klaster) xarid qilingan.

Toshkent metropolitenida sun'iy intellekt tizimining kompyuter nigohiga asoslangan "MyID Palm" kaft orqali to'lov tizimi joriy etilgan.

Bundan tashqari, strategiyaga muvofiq 100 dan ortiq loyihalar ro'yobga chiqarilgan.

O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston transport yo'lagi:

MINTAQALARARO TARAQQIYOT MANZILLARI

Markaziy Osiyoda transport va tranzit haqidagi bitimni ishlab chiqish, biznes uchun qulay bo'lgan oraliq tariflarni qo'llagan holda, Xitoy, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlariga yo'l ochish uchun samarali transport koridorlarini rivojlantirish bo'yicha aniq mexanizmlarni shakllantirish O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatida ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Ayni yo'nalishda transport xizmatlari bozorini liberallashtirish va ruxsat etishga doir tartib-taomillarni optimallashtirish chora-tadbirlari dasturini tayyorlash, xalqaro tashuvlarning integratsiyalashgan raqamli platformasini yaratish ham dolzarb masalalardan biridir.

Nuqtai nazar

Sharqu G'arb, Shimol va Janub chorrahasida

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish va tashqi savdo hajmini oshirishda xalqaro bozorlarga chiqish uchun logistika muammolarini muvaffaqiyatli hal etish muhim omil sanaladi. Taniqli fransuz iqtisodchisi Jak Attali o'zining "Kelajakning qisqacha tarixi. Dunyo yaqin 50 yil ichida" asarida yozganidek, davlatlar har doim savdo yo'llari va karvonlari o'z hududlaridan o'tishlari uchun kurashgan, negaki, bu nafaqat iqtisodiyotlari

o'sishi va aholisi farovonligi uchun yordam bergan, balki mamlakatning mintaqaviy yoki global savdoning faol qatnashchisiga, shuningdek, tarixiy taraqqiyot va ilmiy-innovatsion rivojlanish markaziga aylantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, Sharq va G'arb, Shimol va Janub yo'llari tutashgan hududda joylashgan O'zbekiston uchun transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish har doim ustuvor vazifa sanalgan.



Tashqi savdo aylanmasi 37 milliard AQSH dollariga yetdi



Export

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra tashqi savdo aylanmasi hajmida eksport ulushi 16,9 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Bugungi kunda O'zbekiston jahonning 194 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda.

Mamlakat tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi XXX (17,7 foiz), Rossiya (16,3 foiz), Qozog'iston (6,0 foiz), Turkiya (3,6 foiz) va Koreya Respublikasi (2,3 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.



Eksport tarkibida tovarlar ulushi 76,0 foizni tashkil etib, jumladan, sanoat tovarlari 10,9 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 7,2 foiz, kimyoviy vositalar 5,8 foiz, mineral, yonilg'i-moylash materiallari 4,3 foizdan yuqori bo'ldi.

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

YANGILIKLAR xabarlar

TAFSILOTLAR



Fransiya poytaxtida O'zbekiston Prezidenti sovrini uchun kurash bo'yicha xalqaro turnir bo'lib o'tdi

Parij shahridagi "Emile Anthoine" sport markazida bo'lib o'tgan musobaqalar O'zbekiston kurash federatsiyasi tomonidan Xalqaro kurash assotsiatsiyasi, Yevropa kurash konfederatsiyasi, Fransiya kurash federatsiyasi hamkorligida mamlakatimizning Parijdagi elchixonasi ko'magida tashkil etildi.

Bu yilgi musobaqalarda dunyoning 25 davlatidan yuzga yaqin polvonlar qatnashdi. Turnirda sportchilar -90 va +90 kilogramm og'irlikda, ayollar -70 hamda +70 kilogramm vazn toifasida g'oliblik uchun kurash olib bordi.



Sohilbo'yi turizmi: yangi tashabbus va istiqbolli loyihalar

Norin daryosi sohillari bahavo iqlimi va yashillikka chulg'angan manzaralari bilan har qanday kishini o'ziga maftun etadi. Shundan kelib chiqib, daryoning Uychi tumanidan oqib o'tadigan qismi qirg'og'ini zamonaviy sayyohlik manziliga aylantirish loyihasi ishlab chiqildi.



Daryo bo'yidagi 20 gektar maydonda barpo etiladigan turistik sayilgoh istiqbolliligi bilan e'tiborga molik. Bu yerdagi dastlabki loyihalardan biri mahalliy "Sanlitun" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshirilmoqda.



Kitob sovg'a qilish — ezgu an'ana

Adliya vazirligi tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan loyiha doirasida Sirdaryo viloyatidagi davlat xizmatlari markazlarida "Ziyo ulash" burchaklari tashkil etildi.



— Ma'rifat va kitobxonlik targ'ibotiga qaratilgan ushbu loyiha "bookcrossing", ya'ni kitoblarni erkin almashish tamoyiliga asoslangan, — deydi Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasi mas'ul xodimi Dilnoz Umurzoqova. — Endilikda davlat xizmatlari hamda yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, FHDYO organlari va "Madad" NNT byurolariga keluvchilar o'zlariga kerakli kitoblarni olib ketishi va o'z navbatida, ularning o'niga boshqa adabiyotlarni qoldirishi mumkin. Bu esa "Ziyo ulash" burchaklarining adabiyot fondi mintazam yangilanib turishini ta'minlashi bilan birga kitobxonlik va mutolaa madaniyatini ham mustahkamlaydi.

Loyihaga keng jamoatchilik, turli soha vakillari ham faol qo'shilmoqda. E'tiborlisi, ushbu ezgu ishga kelin-kuyovlar ham bosh qo'shayotir. Ya'ni FHDYO organlariga nikohni qayd etishga kelganlarning "Ziyo ulash" burchagiga kitoblar sovg'a qilishi ibratli an'anaga aylanmoqda.

Aytilshlaricha, "Ziyo ulash" loyihasi asosida hozirgacha 3 mingdan ziyod kitoblar qabul qilindi va shundan 2 719 tasi ehtiyojmand oilalar, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga berildi.

Ahmadali SHERNAZAROV ("Xalq so'zi").

ERISHILGAN NATIJALAR VA KELGUSIDAGI VAZIFALAR MUHOKAMASI

Surxondaryo viloyati xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashida “Mahalliy Kengashlar faoliyatini namunalı tashkil etishning ustuvor yoʻnalishlari: muammo va yechimlar” mavzuida oʻquv seminari uyushtirildi.

Seminar

Surxondaryo viloyatidan saylangan senatorlar, viloyatdagi tuman va shahar Kengashlari deputatlari, kotibiyat xodimlari, siyosiy partiyalar vakillari, soha mutaxassislari hamda jurnalistlar qatnashgan tadbirida xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashining ish tajribasi bilan tanishildi.

Jumladan, ishtirokchilar mahalliy Kengash faoliyatini samarali olib borish boʻyicha erishilgan natijalarni muhokama qildi.

Oliy Majlis Senatining Hududiy vakillik organlari faoliyatini oʻrganish markazi masʼul xodimlari tomonidan Kengashlar faoliyatini tashkiliy-huquqiy va uslubiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash, norma ijodkorligi faoliyatini tashkil etish, mahalliy byudjetni va hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish hamda ijrosini nazorat qilish, shuningdek, rejalashtirish hamda hisobotlarni yuritish borasida deputatlarga tegishli tushuntirishlar berildi.

Seminar soʻngida joriy yil yakuniga qadar viloyatdagi barcha tuman, shahar Kengashlari faoliyatini namunalı tashkil etish choralarini koʻrish boʻyicha vazifalar belgilab olindi.

“Xalq soʻzi”.

DEPUTATLAR FAOLIYATI REYTINGI

YOKI MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI FAOLLIGINI ANIQLASH BOʻYICHA SIRDARYO TAJRIBASI

Soʻnggi yillarda mahalliy Kengashlarning jamiyatdagi oʻrni va taʼsirini kuchaytirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlarining ajratilishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Endi esa “Kuchli Kengash – hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili asosida amaliy ishlarga oʻtilmoqda.

Fikr

Tabiiyki, mahalliy Kengashlar hayotidagi ana shunday tub oʻzgarishlar “Ijro hokimiyatidan alohida boʻlgach ishni nimadan boshlash kerak?” degan savolni oʻrtaga tashladi. Ammo oradan koʻp oʻtmay, oʻtgan yil 19-noyabr kuni Prezidentimiz Oliy Majlis Senati 1-yalpi majlisidagi nutqida shu va boshqa barcha savollarga javob berib, mahalliy Kengashlar oldiga norma ijodkorligi, yaʼni yangi qonunlar loyihalari muhokamasida xalqning ishtirokini taʼminlash, qabul qilingan qonunlar va qarorlar mohiyatini saylovchilarga jonli, ishonarli hamda tushunarli yetkazsa olish, hududlarni rivojlantirish dasturlari ijrosida qatʼiy deputatlik nazoratini oʻrnatish, mahalliy byudjet ijrosi ustidan nazoratni taʼminlash kabi vazifalarni qoʻygan edi.

Ayni shu masalalarni bekamu koʻst ado etish uchun xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi kotibiyati yangicha ishlash uslublarini ishlab chiqdi. Unga koʻra, oyning soʻnggi kunlari “Mahallabay ishlash oʻn kunligi” deb eʼlon qilinib, unda saylovchilar bilan uchrashuvlar va muloqotlar davomida aniqlangan muammolar darajasiga qarab “mahalla – tuman – viloyat – respublika” miqyosida koʻrib chiqilmoqda. Jumladan, joriy yil 1-chorakdagi uchrashuvlarda saylovchilarimiz tomonidan jami 223 ta muammo koʻtarilgan boʻlib, ularning 132 tasi mahallalarning oʻzida hal boʻldi, 65 tasi Kengash huzuridagi doimiy komissiyalar yigʻilishlarida oʻz yechimini topgan boʻlsa, 26 ta masala navbatdagi sessiyalarda muhokama qilinishi belgilab olindi.

Mahalliy Kengashlar faoliyatini kuchaytirish borasidagi Sirdaryo tajribasining muhim jihatlardan yana biri – unda xalqaro hamkorlikka keng oʻrin berilganligi. Xususan, oʻtgan yil 20-aprel kuni viloyatimizda uyushtirilgan Janubiy Koreya bilan biznes-forum doirasida Kvandju metropoliten shahri Kvansan-Gu tumani delegatsiyasi bilan xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi oʻrtasida anglashuv memorandumini imzoladik. Unga koʻra, ikki mahalliy Kengashlar oʻzaro aloqalar oʻrnatib, iqtisodiyot, turizm, madaniyat, taʼlim kabi sohalarni rivojlantirish uchun faol almashuv ishlariini olib borishga kelishdi.

Bundan tashqari, deputatlarning faolligini oshirish va ragʻbatlantirish maqsadida Sirdaryo viloyati Kengashida 2024-yil 24-dekabrda sessiya qarori bilan yangi loyiha, yaʼni deputatlar faoliyat samaradorligini baholashning reyting tizimi joriy qilindi. Chunki kuchli Kengash boʻlishi uchun, avvalo, kuchli deputat boʻlishi lozim.

Mazkur baholash mezonlariga koʻra, deputatning amalga oshirgan har bir ishi 10 ballik tizim asosida baholanib boriladi. Misol uchun, norma ijodkorligi, saylovchilar bilan oy davomidagi uchrashuvlar, deputat soʻrovi yuborish va boshqa bir necha deputatlik vazifalari ijrosi uchun 5 ballidan baho qoʻyib boriladi. Eng katta 10 ballik eʼtirof “mahalla yetiligi” hamda saylovchilar bilan oʻtkazilgan uchrashuvlarda koʻtarilgan muammolar hal etilishidagi ishtirok uchun beriladi. Mazkur reyting tizimini yuritish va nazorat qilish Kengash huzuridagi Reglament va deputatlik oʻdoh-xloqi masalalari boʻyicha doimiy komissiya zimmasiga yuklatilgan.

Aytish mumkinki, ushbu tizim joriy qilingandan soʻng deputatlar faoliyati yanada kuchaydi, faolligi oshdi, muhimi samaradorlik darajasi koʻtarildi.

Taʼkidlash lozim, deputat faoliyatini reyting asosida baholashning afzaliliklari koʻp. Ulardan biri – natijadorlikning yuqoriligi boʻlsa, ikkinchisi, deputatlar faoliyatiga beriladigan bahoning aniq mezonlarga asoslangani, yaʼni haqqoniyligidir. Ayni mana shu talab va jihatlar deputatlarimizni yanada faol boʻlishga hamda zimmalaridagi xalq ishonchidek katta vazifaga masʼuliyat bilan yondashishga undayotir.

Abdushokir ABDURAHMONOV,
xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi kotibiyati mudiri,
viloyat Kengashi deputati.

TADBIRKORLAR QONUN LOYIHASIGA TAKLIF BERDI

Tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash orqali aholi bandligini taʼminlash hamda yuqori qoʻshilgan qiymatli tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ayni vaqtda keng jamoatchilik, ayniqsa, tadbirkorlarni qiziqirtirmoqda.

Ochiq parlament

Shu maqsadda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi aʼzolari Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qoʻmitasi, Savdo-sanoat palatasi hamda tadbirkorlik subyekti vakillari bilan uchrashdi.

Ushbu qonun loyihasi bilan amaldagi 2 ta kodeks hamda 3 ta qonunga tadbirkorlarga yengilliklar berishga qaratilgan qator oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda. Xususan, moliya-xoʻjalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini tugatibni soddalashtirish, yuqori texnologiyalar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishda tadbirkorlik subyektlariga foyda soligi va mol-mulk soligʻidan imtiyoz berish, hududiy yaylov xoʻjaliklarining doimiy foydalanishdagi yaylov yerlari yer soligʻidan ozod qilinishi koʻzda tutilmoqda.

Shu bilan birga, yengil sanoat va xizmatlar sohasini, ipoteka bozori va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va kreativ parking rezidentlarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlari nazarda tutilmoqda.

Uchrashuvda qatnashchilar tomonidan qonun loyihasi yuzasidan qator taklif va tavsiyalar bildirildi. Uni yanada

takomillashtirish, xususan, taqdim qilinayotgan imtiyozlarning manzilliligini taʼminlash maqsadida ayrim normalarni aniqlashtirish, amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirish yuzasidan takliflar berildi. Ishchi guruhga qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida ochiq muloqotda bildirilgan taklif va fikr-mulohazalarni koʻrib chiqib, asosli deb topilgan takliflarni inobatga olish tavsiya etildi.

Ruslan JUMAMURATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Tadbirkorlik, soha masʼullari bilan muloqotimiz qizgʻin va samarali kechdi. Tadbirkorlik faoliyati uchun manfaatli boʻlgan qator masalalar oʻrtaga tashlandi. Xususan, hududiy yaylov xoʻjaliklarining doimiy foydalanishdagi yaylov yerlarini yer soligʻidan ozod qilishda soliqqa solish obyektiini yanada aniqlashtirish yuzasidan Soliq kodeksiga takliflar berildi. Yaʼni loyihada koʻzda tutilgan maqsad aynan Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasi huzurida davlat muassasasi shaklida tashkil etilgan korxonalarga imtiyoz berish hisoblanadi.

EKOFAOLLAR TASHABBUSLARNI ILGARI SURISHDA IZCHIL

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi hamda Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamkorligida Ekologiya sohasida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari hamda ekofaollar bilan ochiq muloqot tashkil etildi.

Unda Qonunchilik palatasi deputatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, hayvonlarni himoya qilish jamiyatlari vakillari, Yoshlar parlamenti aʼzolari qatnashdi.

Uchrashuvda atrof-muhitni muhofazalash, tabiatdan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal etish, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan taʼkidlandi. Deputatlarning faol tashabbusi va ishtiroki bilan sohaga oid 20 dan ortiq qonunlar va xalqaro

hujjatlar qabul qilingani, ekologiyaning har bir yoʻnalishi boʻyicha davlat dasturlari, strategiyalarning ishlab chiqilgani tabiiy muvozanatning kafolati boʻlmoqda. Taʼkidlanganidek, sohada ilgari surilayotgan tashabbuslarni amaliyotga tatbiq etish va ularning hayotiyiligini taʼminlashda davlat organlari, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan bir qatorda ekofaollarning ishtirokini taʼminlash muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan,

qonun loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilish jarayonlarida, ayniqsa, ekologiya sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ekofaollar, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, iqlim oʻzgarishiga befarq boʻlmagan fidoyilar hamda yosh tadqiqotchilarning ishtirokini kengaytirish zarur. Mazkur amaliyot qonunlarning ilmiy va amaliy jihatdan puxta boʻlishida, qonun ijodkorligida nodavlat notijorat tashkilotlari bilan parlament hamkorligini mustahkamlash hamda qonunlarning xalqchilligini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi.

Muloqotda mamlakatimizda ekologik muammolarni hal etish,

tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish, bioxilmaxillikni saqlash, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash va iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish masalalarida tegishli normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar bildirildi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi tomonidan tashabbus huquqi asosida ishlab chiqilayotgan “Hayvonlarni shafqatsiz munosabatlardan himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi maromiga yetkazilishida ekofaollar oʻzlarining taklif va tavsiyalari bilan faol ishtirok etishlari bildirildi.

Uchrashuv yakunida parlament vakillari bilan ekofaollar oʻrtasida doimiy maslahatlashuv va fikr almashish mexanizmini yoʻlga qoʻyish boʻyicha kelishib olindi.

«Xalq soʻzi».

ADOLAT, TENGLIK VA FAROVONLIK TAMOYILLARINI MUSTAHKAMLASH — USTUVOR MAQSAD

Hozirgi globallashuv davrida davlat va jamiyat munosabatlarini barqarorlashtirishda siyosiy partiyalar ham fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari singari muhim rol oʻynaydi. Xususan, Oʻzbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining Qonunchilik palatasidagi fraksiyasining 2025 yil birinchi yarim yillikdagi faoliyati jamiyatda qonun va ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvorligini taʼminlash, sud-huquq tizimini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va sogʻliqli saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratiladi.

Sarhisob

Qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil faoliyati hamda boshqa tadbirlarni samarali tashkil etishda fraksiya tomonidan tasdiqlangan “2025 yilga moʻljallangan chora-tadbirlar rejasiga tayanildi.

Hisobot davrida jami 30 marotaba fraksiya majlisi oʻtkazilib, ularda 255 ta masala muhokama qilindi. Deputatlarimiz boshqa fraksiyalar bilan birgalikda 6 ta qonun loyihasini ishlab chiqish va Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritishda hamtashabbuskor boʻldi.

“Fraksiya – markaz – viloyat – tuman” tizimi orqali partiya bilan hamkorlikda oʻnga yaqin qonun loyihalarining joylardagi muhokamasi tashkil etilib, ularda fuqarolar tomonidan bildirilgan asosli takliflar va fikr-mulohazalar belgilangan tartibda masʼul qoʻmitalarga taqdim qilindi.

Dolzarb masalalar yuzasidan mansabdor shaxslarning axborotini Qonunchilik palatasi majlislarida eshitish tashabbusini ilgari surishda ham fraksiyaning roli va oʻrni ortdi. Deputatlarning joylardagi oʻrganishlari hamda saylov okruglaridagi faoliyatlari davomida aniqlangan dolzarb masalalar boʻyicha berilgan takliflari asosida 1-marta “parlament eshituvi”, 2-marta “hukumat soati” oʻtkazildi hamda 1 ta “parlament soʻrovi” yuborildi.

Hisobot davrida davlat organlarining mansabdor shaxslariga jami 21 ta deputat soʻrovi yuborildi. Bundan

tashqari, fraksiya majlislarida joylarda qonun va qonunosti hujjatlarining ijro etilishi holati, deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatlarini davomida aniqlangan tizimli muammolar yuzasidan mansabdor shaxslarning axborotlari eshitib borilmoqda. Fraksiya tomonidan joylarda aholi bilan yuzma-yuz muloqot qilish, fuqarolarni oʻylantirib kelayotgan tizimli muammolarni aniqlab, hal etish choralarini koʻrish, murojaatlar bilan ishlashga alohida eʼtibor qaratildi.

Aholi muammolarini tahlil qilish va ularning yechimi yuzasidan takliflar ishlab chiqish maqsadida Samarqand, Surxondaryo, Buxoro, Toshkent, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpogʻiston Respublikasida oʻrganishlar oʻtkazildi.

Ayniqsa, joriy yil 16-iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida oʻtkazilgan yigʻilishda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek, Hukumat tomonidan ishlab chiqilayotgan keng qamrovli islohotlardan aholining xabardorligi, islohotlarning amalda ijro qilinayotgani, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarni aniqlash va aholini qiynayotgan masalalarni bartaraf etishga koʻmaklashish maqsadida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida oʻrganishlar oʻtkazildi. Bu islohotlarning joylardagi real ijrosi va aholi kayfiyatini bevosita tahlil qilish, tizimli muammolarni aniqlash hamda ularning yechimi yuzasidan aniq qonunchilik takliflarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Eʼtiborlisi, oʻrganishlar davomida aniqlangan dolzarb masalalar fraksiya majlislarida muhokama qilinib, tegishli vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlariga takliflar kiritib berilishi yaxshi anʼanaga aylandi. Mazkur jarayonga partiyaning hududiy tashkilotlari va mahalliy Kengashlardagi partiya guruhlari ham faol jalb etildi.

Maʼlumki, fraksiya aʼzolarining saylov okruglaridagi faoliyati jamiyatning talab va ehtiyojlarini aniqlashda, joylardagi muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Fraksiya aʼzolari hisobot davrida jami 1221 ta uchrashuv oʻtkazib, ularda 21 609 nafar aholi qamrab olindi. Hududlardagi 612 ta aholi xonadoni, 284

“Fraksiya aʼzolari hisobot davrida jami 1221 ta uchrashuv oʻtkazib, ularda 21 609 nafar aholi qamrab olindi. Hududlardagi 612 ta aholi xonadoni, 284 ta tadbirkorlik subyekti va 649 ta ijtimoiy soha obyektiga tashrif buyurildi.

ta tadbirkorlik subyekti va 649 ta ijtimoiy soha obyektiga tashrif buyurildi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash boʻyicha ham muayyan saʼy-harakatlar amalga oshirildi. Jumladan, fraksiya aʼzolari nomiga aholi va tadbirkorlik subyektlari vakillaridan jami 63 ta murojaat kelib tushdi.

Fraksiya mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka yetkazish, muhim tarmoq va sohalarida mavjud muammolarni muhokama qilish hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli takliflarini ishlab chiqish boʻyicha tadbirlar oʻtkazdi.

Hisobot davrida fraksiyaning partiya bilan oʻzaro aloqalarini yanada mustahkamlash, hamkorlikda joylardagi dolzarb masalalar va mavjud kamchiliklarni oʻrganish, ularga yechim topishda natijadorlikka

erishishga qaratilgan ishlari davom ettirildi. Xususan, birgalikda oʻtkazilgan tadbirlarda 47 ta masala koʻrib chiqildi. Hamkorlikda joylardagi muammo va kamchiliklarni hal etish, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, yoshlar hamda ayollar muammolariga samarali yechim topishga qaratilgan “Biz korrupsiyaga qarshimiz”, “Bir oyda – bir ish oʻrni”, “Yosh adolatchilar”, “Vatan kelajagi yoshlar qoʻlida”, “Farzandlari sogʻlom yurt qudratli boʻlur” kabi loyihalar amalga oshirildi.

Ushbu loyihalar doirasida fraksiya aʼzolari hamda partiya xodimlari joylarda tashkil qilingan kichik ishchi guruhlar bilan birgalikda hududlarga tashrif buyurib, ularda 20 ming nafardan ziyod

saylovchilar, shu jumladan, tibbiyot, huquqni muhofaza etish organlari xodimlari hamda partiya elektorati qamrab olindi.

Shuningdek, aprel oyida eʼlon qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” doirasida bu borada qator tadbirlar amalga oshirildi.

Fraksiyaning qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil faoliyati hamda hududlarda oʻtkazilgan saylovchilar bilan yuzma-yuz muloqotlari, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifalar orqali saylovchilar bilan mustahkam aloqa oʻrnatilgan holda fraksiya faoliyati haqida keng jamoatchilik xabardor qilib borildi.

Aytish joizki, joriy yilning 2 – 13-iyun kunlari partiya tashabbusi bilan oʻtkazilgan “Bor mehrimiz senga, bolajoni!” – begʻaraz donorlik aksiyasi yurtimiz boʻylab keng qoʻllab-quvvatlangan ezgu tashabbuslardan



RAQAMLASHTIRISH – DAVR TALABI



Qoʻmita aʼzolari amalga oshirilayotgan ishlar holatini tahlil qilib, yagona portalda yangi elektron xizmatlar joriy etish orqali ularning sonini oshirish, sunʼiy intellektga asoslangan dasturlarni ishlab chiqish uchun zarur boʻlgan yuqori samarali, zamonaviy server qurollmalarini ishga tushirish kabi masalalarga eʼtibor qaratish zarurligini taʼkidladi.

Shuningdek, deputatlar tomonidan “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini oʻz vaqtida samarali amalga oshirish boʻyicha tegishli tavsiyalar berildi.

Eshtituv yakunida qoʻmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XOʻJALIGINI RIVOJLANTIRISHDA YANGICHA YONDASHUV

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi tomonidan Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi hamkorligida davra suhbbati oʻtkazildi. Unda oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xoʻjaligi sohasida belgilangan strategik maqsadlar samaradorligini oshirish masalalari muhokama etildi.

Maʼlum qilinganidek, Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi faoliyatida xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda mamlakatimizda qishloq xoʻjaligi sohasini yanada taraqqiy ettirish, dehqon va fermer xoʻjaliklari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, imtiyozli kredit mablagʻlarini yoʻnaltirish orqali hududlarda yangi loyihalarning moliyalashtirilishiga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Bundan tashqari, oziq-ovqat taqchilligining oldini olish, yetishtirilayotgan mahsulotlarning sifat darajasini nazorat qilish muhim vazifa sifatida belgilangan. Deputatlar markaz tomonidan olib borilayotgan ishlarga eʼtibor qaratdi. Xususan, qator xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda yoʻlga qoʻyilgan loyihalar doirasida 2 mlrd. dollar miqdorida imtiyozli kredit mablagʻlari ajratilgani, shundan oʻzlashtirilgan mablagʻ 1 mlrd. 400 mln. dollarni tashkil etgani taʼkidlandi.

Bu mablagʻlar oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi sohasini institutsional tahlil qilishni kengaytirish, qishloq xoʻjaligi sohalariiga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori qoʻshilgan qiymatli

eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, yangi urugʻ navlarini yaratish kabi yoʻnalishlarga sarflangan. Eng muhimi, bunda zamonaviy kadrlar salohiyati oshirilishiga ham katta ahamiyat qaratilgan. Mazkur mablagʻlar hisobiga 7 500 dan ortiq loyihalar moliyalashtirilib, natijada 58 386 ta ish oʻrni yaratilgan.

Yigʻilishda markaz tomonidan qishloq xoʻjaligi sohasida faoliyat yuritayotgan ilmiy-tekshirish institutlarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida 115 mln. dollar mablagʻ ajratilgani qayd etildi. Ushbu mablagʻlarni ilmiy institutlar moddiy-texnika bazasini yaxshilash, qishloq xoʻjaligida amaliy tadqiqotlar va ishlarnmalar joriy etilishini taʼminlash, hududlarga mos keladigan urugʻ hamda koʻchatlar ishlab chiqarilishini koʻpaytirish, tuproq, suv va boshqa elementlar tahlilining innovatsion usullarini hayotga tatbiq qilishga yoʻnaltirish boʻyicha olib borilayotgan ishlar tahlil koʻrib chiqildi.

Tadbirida qonun ijodkorligi jarayoni va parlament nazorati tadbirlarini olib borishda markaz bilan hamkorlikning ahamiyati haqida soʻz yuritilib, bu borada kelgusidagi muhim yoʻnalishlar belgilab olindi.

“Xalq soʻzi”.

Oʻzbekiston – Afgʻoniston – Pokiston transport yoʻlagi:

MINTAQALARARO
TARAQQIYOT MANZILLARI

Bu boradagi loyihalarni amalga oshirishda muhim omil – Markaziy Osiyoda barqarorlik va birdamlik bugun tobora mustahkamlanmoqda. Natijada iqtisodiy oʻsish va investitsiyaviy faol mintaqalardan biriga aylanmoqda. Gʻarbni Sharq va Shimolni Janub bilan bogʻlaydigan transport xabi boʻlishdek tarixiy vazifani yana oʻz zimmasiga olmoqda.

Temir yoʻl transporti Oʻzbekistonning asosiy ichki va davlatlararo tashuvlarida yetakchi pozitsiyani egallaydi. Mamlakat iqtisodiyoti ham unga bogʻliq boʻlib kelgan. Bu bejiz emas. Temir yoʻl transporti boshqa vositalarga nisbatan arzon. Shu bois respublikamiz qulay imkoniyatdan foydalanib, tranzit mamlakatga aylanishga, turli transport va temir yoʻl yoʻlaklarini oʻz hududidan oʻtkazishga harakat qilmoqda.

Sobiq ittifoq parchalanganidan soʻng dengizga chiqish imkonini boʻlmagan davlatlar soni 34 taga yetdi. Oʻzbekiston bu roʻyxatda alohida oʻrin egallaydi, chunki u jahon okeaniga kamida ikki davlat orqali chiqadigan ikkita mamlakatdan biri. Geografik joylashuvimiz ham geosiyosi, ham geoiqtisodiy nuqtayi nazardan doim muayyan murakkabliklar tugʻdirib kelgan. Dengiz yoʻllaridan uzilgan Oʻzbekiston uchun mahsulot importi va eksportida transport xarajatlarining ulushi yuqorilgicha qolmoqda. Yaʼni respublikaga olib kirilayotgan yoki aksincha, mamlakatdan xorijga yoʻnatilayotgan mahsulotning har bir tonnasi bizga boshqa davlatlarga qaraganda ancha qimmatga tushyapti.

Integratsiyani
kuchaytirish yoʻlida

Ana shu muammoni samarali hal etish maqsadida Oʻzbekistonda keyingi sakkiz yil mobaynida transport yoʻnalishlarini diversifikatsiyalash masalasiga jiddiy eʼtibor qaratildi. Mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish borasida tashabbuslar jadallashdi. Shunday loyihalardan biri Oʻzbekiston – Afgʻoniston – Pokiston transport yoʻlagidir.

Mazkur transport yoʻlagi mintaqa davlatlari uchun ulkan iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochishi kutilmoqda. Oʻzbekiston Afgʻonistonni mintaqaviy integratsiyaga jalb qilishga imkon beruvchi transport-logistika loyihalarini amalga oshirishdan



manfaatdor. Mamlakatimiz, shuningdek, Afgʻoniston hukumati va boshqa xalqaro sheriklar bilan birgalikda Markaziy va Janubiy Osiyoni bogʻlovchi Mozori-Sharif – Hirot va Mozori-Sharif – Peshovar temir yoʻl loyihalarini amalga oshirishda qatnashishga tayyorligini bot-bot takrorlayapti.

Buning isboti oʻlaroq, oʻtgan hafta Oʻzbekiston, Pokiston va Afgʻoniston Termiz – Noibobod – Maydonshahr – Logar – Xarlachi yoʻnalishi boʻyicha temir yoʻl loyihasining texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqish toʻgʻrisida hukumatlararo bitimni imzoladi. Kelishuv 17-iyul kuni Kobulda uch davlat tashqi ishlar vazirlari ishtirokida boʻlib oʻtgan uch tomonlama sammitda imzolandi. Mazkur yoʻnalish 2023-yil iyul oyida Islomobodda loyihaga aʼzo davlatlar vakillari tomonidan kelishilgan. Xalqaro transport yoʻlaklarini rivojlantirish strategiyasining uch tomonlama loyiha ofisi texnik-iqtisodiy asosni tayyorlash bilan bogʻliq ishlarga buyurtmachi boʻladi. U 2023-yil may oyida Toshkentda tashkil etilgan boʻlib, Kobul va Islomobodda filiallariga ega.

Birinchii marta 2018-yilda taklif qilingan Transafgʻon temir yoʻli loyihasi Oʻzbekistondagi Termiz shahrini Afgʻonistonning Mozori-Sharif va Kobul shaharlari bilan, soʻngra Pokistonning Peshovar shahri bilan bogʻlashga qaratilgan. Qurilish tugallangach, temir yoʻl Afgʻoniston orqali 700 kilometrdan ortiq masofaga choʻzilib, Markaziy Osiyo va Arabiston dengizi oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri quruqlik yoʻnalishini yaratadi. Loyiha qiymati dastlab 5 mlrd. dollarga baholangan, keyinroq bu raqam 7 mlrd. dollarga yetkazilgan. Loyiha Rossiya, Eron va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi. Ushbu yoʻnalish orqali Markaziy Osiyodan Pokiston portlariga yuklarni yetkazib berish vaqti bir necha haftadan bir necha kungacha qisqarishi kutilmoqda.

Mozori-Sharifni Pokiston dengiz portlari bilan bogʻlovchi temir yoʻl loyihalarini bugungi kunda qizgʻin muhokamada. Mazkur yoʻnalishning ochilishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun Pokistonning Gvadar hamda Karachi portlariga chiqish va keyinchalik Hindiston hamda Bangladeshga yuklar tranzitini faollashtirish uchun koʻmaklashadi.

Tahdidlar va
imkoniyatlar

Keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan qator konferensiya va uchrashuvlar, ayniqsa, “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy oʻzaro bogʻliqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzuida boʻlib oʻtgan yuksak darajadagi xalqaro anjumaning bosh mavzulari transafgʻon yoʻlidagi masalalarga bagʻishlangani bilan ahamiyatli boʻldi.

“Yoʻlak uch davlat oʻrtasidagi savdo hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Oʻzbekiston Pokiston orqali dengizga chiqish imkoniyatini qoʻlga kiritadi. Afgʻoniston esa tranzit mamlakat sifatida iqtisodiy manfaat koʻradi. Pokiston esa Markaziy Osiyo bozoriga kirish imkoniyatini kengaytiradi.”

Loyiha haqida soʻz ketganda, 2021-yil fevral oyida Toshkentda Oʻzbekiston, Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasida Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar temir yoʻli qurilishi boʻyicha “Yoʻl xaritasi” imzolaganini taʼkidlash joiz. Loyihani may oyida tayyorlash, yoʻl qurilishi esa 2021-yil sentyabrda boshlanishi rejalashtirilgandi. Ammo Afgʻonistonda hokimiyat almashishi loyihani sekinlashtirdi. Biroq dekabr oyida Afgʻoniston muvaqqat hukumati loyihaga qoʻshildi. 2022-yil 18-iyulda mamlakatda transafgʻon temir yoʻlining yoʻnalishini aniqlash va loyiha texnik-iqtisodiy asoslari boʻyicha ekspeditsiya ishlari boshlandi.

Oʻzbekistonning “Boshttransloyiha” instituti yoʻl qurilishi qiymatini 4,6 mlrd. dollarga, Pokiston tomoni esa 8,2 mlrd. dollarga baholagan. U yiliga 20 mln. tonnagacha yuk tashish imkoniyatiga ega 573 km. uzunlikdagi magistral qurishni nazarda tutadi. Yangi transport

yoʻlagi Yevropa Ittifoqi, Rossiya, Oʻzbekiston, Afgʻoniston, Pokiston, Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarini bogʻlashi kerak. Shu bilan birga, liniya ham yuk, ham yoʻlovchi tashishni qoʻllab-quvvatlaydi. Tovarlarini tashish narxi ham kamida 40 foizga arzonlashadi. Loyiha 2027-yil oxirigacha yakunlanishi kutilmoqda. 2030-yilga borib esa poyezdlar yiliga 15 mln. tonnagacha yuk tashish imkoniyatiga ega boʻladi.

Asosiy ishtirokchilar – Oʻzbekiston, Pokiston va Afgʻoniston. Bu yerda xuddi Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻli loyihasida boʻlgani kabi konsorsium tuziladi hamda oʻsha konsorsium keyinchalik salohiyatli investorlar va hamkorlar bilan ishlaydi. Albatta, bu yana ham murakkab loyiha. Asosiy nuqta – xavfsizlik va foydalanish imkoniyati muammosi.

Oʻzbekiston – Afgʻoniston –

Pokiston transport yoʻlagi qator jihatlar bilan ahamiyatli.

Birinchidan, savdo aloqalarini rivojlantirish garovidir. Yoʻlak uch davlat oʻrtasidagi savdo hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Oʻzbekiston Pokiston orqali dengizga chiqish imkoniyatini qoʻlga kiritadi. Afgʻoniston esa tranzit mamlakat sifatida iqtisodiy manfaat koʻradi. Pokiston esa Markaziy Osiyo bozoriga kirish imkoniyatini kengaytiradi.

Ikkinchidan, loyiha amalga oshsa, transport xarajatlarini kamaytiradi. Transport yoʻlagi mavjud yoʻnalishlarga nisbatan masofani qisqartiradi. Bu esa

Oʻzbekiston – Afgʻoniston – Pokiston transport yoʻlagi mintaqa davlatlari uchun ulkan iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. Mazkur loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirib, xalqlarning farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Savdo aloqalarini rivojlantirish, transport xarajatlarini kamaytirish va mintaqa davlatlari uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochadi.

Sadriddin TUROBJONOV,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, akademik.

eksport va import qilinayotgan mahsulotlar narxining arzonlashishiga olib keladi.

Uchinchidan, transport yoʻlagi mintaqa davlatlari oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

Toʻrtinchidan, transport yoʻlagining qurilishi va ekspluatatsiyasi minglab yangi ish oʻrinlarini yaratadi. Bu esa aholining bandligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, transport yoʻlagi loyihasi doirasida yoʻllar, temir yoʻllar, omborlar va boshqa infratuzilma obyektlari quriladi. Bu esa mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi. Ayni paytda Oʻzbekistondan Pokistonga yuk tashish uchun bir nechta yoʻnalish mavjud. Ularning aksariyati uzoq vaqt talab qiladigan va qimmatga tushadigan tranzit mamlakatlar orqali oʻtadi. Masalan, yuk Qozogʻiston, Rossiya va Eron orqali dengiz portlariga yetkaziladi va u yerdan Pokistonga yuboriladi. Bu yoʻnalishlar bir necha hafta, hatto oylar davom etishi mumkin. Oʻzbekiston – Afgʻoniston – Pokiston transport yoʻlagi bu muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Oltinchidan, yangi yoʻnalish, yuqorida taʼkidlaganimizdek, mavjud yoʻnalishlarga nisbatan masofani sezilarli darajada qisqartiradi. Bu esa transport xarajatlarini va vaqtini tejash imkonini beradi.

Yettinchidan, tranzit mamlakatlar sonining kamayishi yuk tashuvlarini osonlashtiradi va chegaralardagi byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etadi. Ekspertlarning baholariga koʻra, Oʻzbekiston – Afgʻoniston – Pokiston transport yoʻlagi yuk tashuvlari muddatini 30 – 50 foizga qisqartirishi mumkin. Baʼzi hisob-kitoblarga koʻra, yuk Pokistonga 5 – 7 kun ichida yetib borishi mumkin, bu hozirgidan ancha tezroq. Bu esa eksport va import qiluvchi kompaniyalar uchun katta foyda keltiradi.

Fransiya poytaxtida
Oʻzbekiston Prezidenti
sovrini uchun kurash
boʻyicha xalqaro turnir
boʻlib oʻtdi

Turnirning ochilish marosimida Oʻzbekiston elchisi Nodir Gʻaniyev va Xalqaro kurash assotsiatsiyasi bosh kotibi Muhammad Rizo Nassiri ishtirokchilarni qutladi.

Xalqaro turnir nafaqat musobaqalar maydoniga, balki xalqlar oʻrtasidagi doʻstlik va oʻzaro hamjihatlik bayramiga aylandi. Turnir davomida mamlakatimizning boy sayyohlik va gastronomik salohiyati, xalq hunarmandlari mahsulotlari koʻrgazmasi, oʻzbekistonlik sanʼat ustalari ishtirokidagi konsert dasturi namoyish etildi.

Oʻzbekiston Prezidenti sovrini uchun kurash boʻyicha xalqaro turnirda ayollar oʻrtasida -70 kg vazn toifasida Overkamp Naomi (Niderlandiya), +70 kg vaznda Nunn Chloye Jessika (Buyuk Britaniya) birinchi oʻrinni egalladi. Erkaklar oʻrtasida esa -90 kg vaznda Oʻzbekiston vakili Alixon Nodirov, yana bir polvonimiz Sherali Joʻrayev esa +90 kg vazn toifasida bosh sovrinni qoʻlga kiritdi.

Kurash bahslari fransuz jamoatchiligi va Fransiya davlati ushbu sport turiga muxlislik qiladiganlarda katta qiziqish uygʻotdi.

Filipp OJE,
Dovil shahri meri:

– Bugun oʻzim yaqindan tanish boʻlmagan oʻzbek kurashini kashf etganimdan juda xursand boʻldim. Oʻzbekiston Prezidenti sovrini uchun oʻtkazilgan kurash turniri bir necha hafta avval Dovil shahrida oʻzbek modasi namoyishi boʻlib oʻtgan mamlakatimiz bilan tanishuvimni yanada

kengaytirdi. Ushbu esda qolari voqea bizga foydali aloqalar oʻrnatish imkonini berdi, biz ulami madaniyat, sayyohlik, hozirda esa sport sohaslarida yanada rivojlantirish niyatidamiz. Oʻylaymanki, biz bir-birimizni yaqinroq bilish va oʻzaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirishda toʻgʻri yoʻldamiz.

Oliver GRIZARD,
“UBAF” banking xalqaro savdo va bank
operatsiyalari direktori:

– Parijdagi ushbu tadbirda ishtirok etish men uchun katta sharaf. Oʻzbekiston – jahon miqyosida oʻz nomini nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki boshqa yoʻnalishlarda ham keng tarannum etayotgan davlat. Oʻzbekiston sport sohasida ham ulkan yutuqlarni qoʻlga kiritmoqda. Ayniqsa, 2024-yilda Parijda boʻlib oʻtgan yozgi Olimpiya

oʻyinlarida Oʻzbekiston atletlari ajoyib natijalarga erishdi. Oʻzbek milliy kurashining keng miqyosda rivojlanishi, Parijda nafaqat Osiyo, balki Yevropa, hatto Afrikaning turli mamlakatlari sportchilari ishtirokida tashkil etilgan turnir, bularning barchasi Oʻzbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Maksim BUYER,
Tuluza shahri meri oʻrinbosari:

– Bugun Parij markazida muhim tadbir – Oʻzbekiston va Markaziy Osiyoda koʻp asrlik anʼanaga aylangan milliy sport turini hamda Fransiyaning eng diqqatga sazovor joyi – Eyfel minorasini birlashtirgan kurash boʻyicha xalqaro turnir boʻlib oʻtdi.

Oxirgi oylarda biz Oʻzbekiston va Fransiya oʻrtasidagi munosabatlarda muhim lahzalarga guvoh boʻldik. Oʻzbekiston Prezidenti joriy yilning mart oyida Fransiya davlat tashrifi bilan boʻlib, uning doirasida Prezident Emmanuel Makron bilan uchrashdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatingizda yangi

Oʻzbekistonni barpo etish yoʻli belgilandi. Bu madaniy, iqtisodiy va geosiyosiy nuqtayi nazardan dinamik loyihadir. Oʻzbekiston nafaqat Markaziy Osiyo darajasida, balki jahon miqyosida ham taraqqiyot sari jadal odimlamokda. Bu Fransiya va Oʻzbekiston nega bir-biri bilan yaqinlashib, ikki tomonlama hamkorlikni jadal rivojlantirmokda, degan savolga javob beradi. Jahon tarixida muhim iz qoldirgan ikki davlatning yaqinlashuvi dunyoning ikki mintaqasi – Yevropa va Markaziy Osiyo oʻrtasidagi hamkorlikni ham mustahkamlaydi.

“Dunyo” AA.
Parij

Sohilboʻyi turizmi:
yangi tashabbus va
istiqbolli loyihalar

– “Boʻston” mahalla fuqarolar yigʻini hududida qurilishi boshlangan 50 sotix maydondagi “Bali” sayyohlik majmuasiga 3 milliard soʻm miqdorida investitsiya yoʻnaltiryapmiz, – deydi loyiha tashabbuskori Egamberdi Vahobov. – Uning tarkibidan oʻrin oladigan koʻp qirrali madaniy dam olish inshootlari, jumladan, sportning bir necha turlariga moʻljallangan stadion, beshta kemping, selfi maydoni va restoranda dam oluvchilar uchun ideal sharoit yaratiladi. Ayni paytda ishlar jadal ketmoqda, kelgusi yil yozida dastlabki sayyohlarni qabul qilishni rejalashtirganmiz.

Aytish joizki, Norin daryosi va beshta yirik kanal oqib oʻtadigan Uchqoʻrgʻon tumanida ham sohilboʻyi turizmiga alohida eʼtibor qaratilib, 30 gektarlik maydonda mazkur yoʻnalishdagi megaloyiha ijrosiga kirishildi. Uning tarkibiga kiradigan akvapark, kapsula shaklidagi dam olish xonalari, interfaol attraksion, gullar bogʻi, amfiteatr, salomatlik yoʻlaklari, restoranlar va koʻpriklari sayilgoh toʻlaonli hordiq chiqarish imkoniyatini yaratadi. Natijada tumanida ushbu yoʻnalishda 450 dan ziyod yangi ish oʻrinlari paydo boʻladi.

Quadratilla NAJMIDDINOV
 (“Xalq soʻzi”).

IMKONIYAT CHEKLANISHI MUMKIN,
IRODA EMAS

Inson mustahkam irodasi, katta saʼy-harakati va fidoyiligi bilan oʻz hayotini tubdan oʻzgartirib yuborishga qodir. Agar uning jismoniy imkoniyati cheklangan boʻlsa-chi, deysizmi? Toʻgʻri, imkoniyat cheklangan boʻlishi mumkin, lekin irodani chegaralab boʻlmaydi – intilish va mehnat orqali har qanday toʻsiqlarni yengib oʻtish mumkin.

Ibrat

Bunga Termiz shahrining Turon mahallasida yashovchi Furqatjon Qurbonovning hayoti yorqin misol boʻla oladi.

Gap shundaki, ikkinchi guruh nogironi boʻlgan bu yigit “men isha yaramayman” deb oʻzgalardan najot kutib yashashni oʻziga ep koʻrmadi. Unday qilolmasdi, undagi gʻurur va iroda ishlashga, mehnat qilishga, hech kimdan kam boʻlmasslikka undadi. Uy sharoitida tadbirkorlikni yoʻlga qoʻyib, oʻz hayotini yangicha oʻzanga burib yubordi.



U Toshkentda nogironligi borlar uchun ixtisoslashtirilgan kollejda tahsil oldi. Oʻqishni tamomlab, bir muddat ishsiz yurgani ham rost. Lekin u tushkunlikka tushmadi, hayot tarzi oʻzgarishiga, uni oʻzi oʻzgartira olishiga ishonadi. Bu ishonch unga kuch-quvvat ato etdi.

Kimdir arzimasa ish deb, nazarga ilmagan hunarga qoʻl urdi. Yaʼni uyda chuchvara tayyorlab sotdi. Biznesi biroz yurishgach, uning mazkur saʼy-harakati mahalladagi hokim yordamchisi eʼtiborini tortdi. Mulozim dastlab 15 million soʻmlik imtiyozli kredit olishiga koʻmaklashdi. Shu kredit orqali pech xarid qilindi va non hamda non mahsulotlari ishlab chiqarish sexi

tashkil etildi. Bu Furqatjon Qurbonov hayotida yangi bosqichning boshlanishi boʻldi. U tayyorlagan mahsulotlar mahalladagi doʻkonlarga yetkazila boshlandi. Faoliyati kengayishi ortidan esa u yana bir marta kredit olib, yangi jihozlar – qoʻshimcha pech, sovitkich va boshqa uskunalar sotib oldi.

Ahamiyatlisi, yosh tadbirkor non sexi bilangina cheklanib qolmadi. Yaqindan boshlab u uy sharoitida zotdor parranda, qoʻy va qoramol boqishga kirishdi. Bu bilan u oʻz oilasi daromadini koʻpaytirib qolmay, elu yurtga ham katta naf keltirmokda.

Farhod ESONOV
 (“Xalq soʻzi”).

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 00.40 Topshirildi — 02.15 **1 2 3 4 5 6**